

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

DAUTOVA MALIKA MUXTAROVNA

**INGLIZ TILIDA MODAGA DOIR NEOLOGIZMLAR VA ULARNING
RUS HAMDA O‘ZBEK TILLARIGA TARJIMASI MASALALARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Dautova Malika Muxtarovna

Ingliz tilida modaga doir neologizmlar va ularning rus hamda o‘zbek tillariga tarjimasi masalalari..... 3

Даутова Малика Мухтаровна

Неологизмы сферы моды в английском языке и их проблемы перевода на русский и узбекский языки 27

Dautova Malika Mukhtarovna

Neologisms in the field of fashion in English and their translation problems into Russian and Uzbek languages 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

DAUTOVA MALIKA MUXTAROVNA

**INGLIZ TILIDA MODAGA DOIR NEOLOGIZMLAR VA ULARNING
RUS HAMDA O‘ZBEK TILLARIGA TARJIMASI MASALALARI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3479 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ter-su.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Ibodulla Kamolovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raximov G'anisher Xudoyqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Xushmurodova Shaxnoza Shaymanqulovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "04" yanvar soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, bosh o'quv binosi, 105-xona).


Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (144 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: 239-11-40; 239-18-92 faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "23" dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "23" dekabr dagi 21 raqamli reyestr bayonnomasi).




J.D. Eltazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor


Sh.S. Mahmadiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent


X.Z. Xayrullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida keyingi o'n yillikda globallashtirish jarayonlari rivojlangani sayin ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlarini o'rganish borasidagi tadqiqotlar ham shiddat bilan rivojlanayotgani kuzatilmoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish sifatiga qo'yilayotgan talab¹ning ortib borishi xorijiy tillarni chuqur o'rganishni talab qiladi. Shu bilan birga, ingliz tili mamlakatda yil sayin keng quloch yozgan hozirgi paytda shu tildagi modaga oid jurnallarda qo'llanilayotgan neologizmlarni tadqiq qilish tilshunoslarning muhim vazifalaridan sanaladi. Ingliz tili neologizmlarini rus va o'zbek tillariga tarjima qilish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarning amalga oshirilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini va uning zaruratini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda til hodisalarini uslubiyat nuqtayi nazaridan o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shu yondashuv asosida neologizmlarning uslubiy xususiyatlari o'rganilmoqda, ushbu xususiyatlar bevosita adabiy tillarni ham o'zgartirmoqda, ko'lamdor ijtimoiy o'zgarishlar munosib ravishda yangi so'zlar va iboralar yaratmoqda. Ommaviy axborot vositalari milliy til va jamiyatning nutq xulqiga bevosita ta'sir ko'rsatadi, milliy tilda ro'y berayotgan barcha jarayonlar unda aks etadi. Uni alohida emas, balki dolzarb mediadiskursni shakllantiruvchi ekstralingvistik omillarning keng spektri bilan birgalikda o'rganish ijtimoiy zaruratga aylandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev mamlakatda tilshunoslik bilan birgalikda ilmfan rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, "eng katta boylik – aql-idrok va ilmfan, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik bilimlarning yo'qligi hisoblanadi", – degan edi². O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fikriga ko'ra, ma'rifatga, zamonaviy bilimlarga va yuksak madaniyatga intilish mamlakatning barcha fuqarolari uchun hayotiy zaruriyat bo'lishi kerak. Bu jarayon yosh avlodga xorijiy tillarni o'qitish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, globallashtirish sharoitida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilmoqda³.

Ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rgatish barobarida uning boy leksik qatlamining shakllanish tarixi va rivojlanishi, tilning lug'at tarkibidagi neologizmlarni tadqiq qilish ularni tilda va nutqda to'g'ri qo'llash mezonlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Chunki ingliz tilida neologizmlarning paydo bo'lishi va qo'llanilishi uzoq tarixga ega bo'lsa-da, moda sohasi neologizmlari hozirgacha monografik tarzda o'rganilgan emas.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. // www.lex.uz

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси // Национальное информационное агентство Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. – <https://uza.uz/ru/politics/poslanie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziyeev-25-01-2020>.

³ Хужанова М.И. Совершенствование обучения иностранным языкам – веление времени // Молодой ученый. – 2019. – № 11 (70). – С. 352.

Ingliz tilidagi nashrlarda uchraydigan moda sohasidagi neologizmlarni rus va o'zbek tillariga tarjima qilish qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish yo'llari hozirgi paytda O'zbekistonda olib borilayotgan tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki mazkur muammo ham ilgari tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-sonli "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitish sifatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va davlatni ijtimoiy, demokratik huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Inglizcha neologizmlar va ularni turli tillarga tarjima qilish muammosi bilan ko'plab olimlar, jumladan, U.Lehmann, P.A.Nevmark, V.N.Komissarov, O.G.Lebedeva, I.S.Alekseyeva, T.A.Yefremova, Y.V.Nikolayeva, A.S.Mirzamova va boshqalar⁴ shug'ullanishgan bo'lsa, o'zbekistonlik tadqiqotchilardan S.X.Nurtayev, F.S.Ubayeva, O.S.Axmedov, D.M.Zaytayeva, G.N.Xidirova⁵ va boshqalarning ishlarida neologizmlar tarjimasi masalalari qisman o'rganilgan.

⁴ Lehmann U. Fashion as Translation // Art in Translation. – 2015. – Vol. 7, – Issue 2: Fashion. – P.165-174.; Newmark P.A. Textbook of Translation. – UK: Prentice Hall International Ltd., 1988. – 311 p.; Комиссаров В.Н. Общая теория перевода. – М.: Высш. шк., 2000. – 253 с.; Лебедева О.Г. Способы перевода неологизмов // Lingua mobilis. – 2011. – №5 (31). – С. 118-122.; Алексеева И.С. Введение в переводоведение. – М.: Академия, 2014. – 352 с.; Ефремова Т.А., Николаева Е.В. Некоторые особенности перевода неологизмов в сфере индустрии моды с английского языка на русский // Вопросы филологии и переводоведения. Сборник научных статей. Отв. ред. Кормилини Н.В., Шугаева Н.Ю. – Чебоксары, 2018. – С. 190-193.; Мирзамова А.С. Перевод английских неологизмов в современных экономических текстах // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2020. – Том 13. – Выпуск 6. – С. 284-290.

⁵ Нуртаев С.Х. Проблемы перевода неологизмов, используемых в английских средствах массовой информации // Наука и образование сегодня. – 2019. – №6-2 (41). – С. 67-68.; Ubayeva F.S. O'zbek neologizmlarini rus tiliga tarjima qilish strategiyalari. – Samarqand, AST, 1998. – 174 с.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари. Филол. фанлари д-ри. дисс. – Тошкент, 2016. – 255 б.; Зайтаева Д.М. Авторский неологизм как лингвистический феномен и как объект перевода // CARJIS. – 2020. – № 6. – С.13-25; Хидирова Г.Н. Синтаксические трансформации в русских переводах узбекских неологизмов // Полилингвистическая и транскультурные практики. – 2020. – Т. 17. – № 3. – С. 375-384.

Neologizmlarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish borasida ham jahonda qator olimlar izlanishlar olib borishgan. Masalan, R.Glaser, K.P.Kuk, J.F.Sablairolles, N.M.Jutovskaya va M.V.Kugubayeva, E.A.Koltsova⁶ va boshqa olimlar, o'zbek tilshunosligida D.Fayzullayeva, F.Xamrokulov, N.A.Sadullayeva⁷ kabi tadqiqotchilar o'zlarning ilmiy ishlarida neologizmlarning tuzilishi va tilda ishlatilishiga doir tadqiqotlar olib borishganlar.

Mazkur ilmiy ishlar yaxlit umumnazariy tasavvurni shakllantirish, moda sohasidagi inglizcha neologizmlarning rus va o'zbek tillariga tarjimalarini tahlil qilish, o'z tarjima modelimizni ishlab chiqish va ingliz tilidagi OAVning materiallarni mualliflik tarjimasi amaliyotida uning yuksak samaradorligini namoyish qilish imkonini berdi. Ammo modaga oid jurnallarda inglizcha neologizmlarning rus va o'zbek tiliga tarjimasi strategiyasi, usullari va uslublari muammolari alohida aspektda tadqiq etilmagan. Shu munosabat bilan mazkur dissertatsiya tadqiqoti ilmiy yangilik hisoblanadi hamda mazkur muammo bo'yicha tilshunoslik tarixida mavjud kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilganligi bilan yuqoridagi tadqiqotlardan farq qiladi.

Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta'lim muassasa ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Tadqiqot Termiz davlat universiteti ingliz tili va adabiyoti kafedrasida o'rganilayotgan "Tilning leksik-semantik tizimini chog'ishtirma-tipologik o'rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya" mavzusidagi istiqbolli ilmiy-tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan (ITA-12-09-2012).

Tadqiqot maqsadi ingliz tili moda sohasidagi neologizmlarning o'zbek va rus tillariga tarjimasi muammolarini ochib berish hamda ingliz tili va, umuman, moda sohasidagi modifikatsiyada zamonaviy voqelik va tamoyillarni hisobga olgan holda tarjima jarayonini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- ingliz tilidagi neologizmlarning turlari va vazifalarini tahlil qilish;
- moda sohasidagi inglizcha neologizmlarning nominativ xarakteristikasini tavsiflash va tarjima tilida yangi so'z hosil bo'lishi spetsifikasini belgilash;
- inglizcha neologizmlarni rus va o'zbek tillariga tarjima qilish strategiya va usullarini tahlil qilish;

⁶ Gläser, R. (1984). Terminological problems in linguistics with special reference to Neologisms. LEXeter'83 Proceedings (Lexicographica Series Maior. – P.345-351.; Cook, C. (2010). Exploiting linguistic knowledge to infer properties of neologisms. – Canada: University of Toronto.; Sablayrolles, J.-F. Processing and monitoring the circulation of neologisms found by extractors // Neologica. – 2019. – N 13. – P.55-69; Садуллаева Н.А. Нераспространенные и распространенные синтаксические явления в узбекском и английском языках: Автореф. докт. дисс...– Ташкент, 2020. – 40 с.; Жутовская Н.М., Кугубаева М.В. Неологизмы в англоязычных текстах средств массовой информации // Царскосельские чтения. – 2017. №. 4. – С.344-347.; Kolsova, E. A. (2017). Neologisms in the English language in the 21st century. RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics, 8(3). – P. 604-613.

⁷ Файзуллаева Д. Сравнение некоторых неологизмов в английском и узбекском языках. Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2021. <https://education.jspi.uz/index.php/fll/article/view>; Хамрокулов Ф. Лингвоспецифические характеристики синтаксических связей русского и узбекского языков // Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Гуманитарные науки. – 2010. № 2 (22). – С.55-65.; Садуллаева Н.А. Нераспространенные и распространенные синтаксические явления в узбекском и английском языках: Автореф. докт. дисс...– Ташкент, 2020. – 40 с.

neologizmlarning asliyat va tarjima matnlarida qo'llanishini chog'ishtirish; inglizcha publitsistik matnlardagi moda sohasidagi neologizmlar(ning) rus va o'zbek tillariga tarjimasi(ni) takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz, rus va o'zbek tillaridagi modaga oid jurnallar hamda internet portallari matnlarida ishlatiladigan neologizmlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini moda sohasidagi neologizmlarning o'ziga xosliklari, ularni rus va o'zbek tillariga tarjima qilish muammolari hamda ularni hal qilish yo'llari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyani yozish davomida qiyosiy-tipologik, transpozitiv, differensial va statistik tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilida moda sohasiga oid neologizmlarning paydo bo'lish va ishlatilish qonun-qoidalari, mazkur leksik birliklarning terminologik (*pinstripe, chalk stripe, winklepickers, comfury*), stilistik turlari (Bird's eye, Sharkskip, Herringbone, Houndstooth, Xevlok) hamda yasaliş usullari dalillangan;

ingliz tilidagi modaga oid jurnallarda ishlatilayotgan neologizmlarning rus va o'zbek tillariga tarjimalari baholanib, mazkur leksemalarni tarjima qilish usullari, vositalari va strategiyalarini qo'llashning ovoz ohangi, kontent reja, rubrikator (rubrika) kabi o'ziga xosliklar ochib berilgan;

ingliz tilida OAV matnidagi sintaktik monand yoki so'zma-so'z tarjima, konkretizatsiya, umumlashtirish (generalizatsiya), antonimik tarjima, modulyatsiya singari tarjima turlaridan foydalangan holda kommunikativ strategiyalar va taktika hamda nutqiy akt kabi tarjimaning pragmatik xususiyatlari dalillangan;

ingliz tilidagi modaga oid jurnallarda ishlatilgan hozirgi ingliz tilida kechayotgan semantik va so'z yasash jarayonlarini aks ettiruvchi yangi so'zning individual qo'llanilishidan til jamoasiga o'tishi bilan bog'liq lingvokreativ faoliyat natijasida yuzaga kelgan neologizmlarning fonologik, o'zlashma, morfologik, birikmali, konvertatsiyali kabi yasaliş usullari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilidagi moda sohasiga doir neologizmlar tadqiqi natijasida olingan natija va xulosalar o'zbek tilshunosligi va tarjimashunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, mazkur leksik birliklar tahliliga oid nazariy va amaliy kurslarni tashkil etilishi, darslik hamda o'quv qo'llanmalarining takomillashuviga xizmat qilishi dalillangan;

tadqiqot natijalari bo'yicha qilingan ilmiy xulosalar ta'limning barcha bo'g'inlarida lingvodidaktikani yanada takomillashtirish, neologizmlarning tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish asoslari belgilab berilgan;

ingliz, rus va o'zbek tillarida modaga oid neologizmlar hamda ularning tarjimasi nazariyasi boyitilgan;

ingliz tilini o'rganishda moda sohasiga oid neologizmlarni tahlil qilish hamda ulardan kasbiy foydalanish sohasida o'quv adabiyotlari va lug'atlar yaratish tamoyillarini takomillashtirish yuzasidan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi shu bilan belgilanadiki, tadqiqotda foydalanilgan tahlil yondashuv va usullari hozirgi lingvistik nazariyalarga mos, shuningdek, metodologik asoslangan, tadqiqot materiallari ishonchli manbalardan olingan, muammo aniq ifodalangan, xulosalar mantiqiy chiqarilgan, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilingan, bu nufuzli organlar tomonidan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olib borilgan izlanishlar asosida qo‘lga kiritilgan natijalardan foydalanish va maxsus leksika va moda neologizmlarining alohida qatlamlari, jumladan, boshqa tillar materialida ham chuqur o‘rganishini takomillashtirish uchun istiqbollar ochadigan xulosalar bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya materiallaridan “Leksikologiya”, “Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” fanlari bo‘yicha ma’ruza hamda seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazishda, maxsus kurslarni o‘qitishda, lug‘at hamda ma’lumotnomalar va dissertatsiyalar yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilida modaga doir neologizmlar va ularning rus hamda o‘zbek tiliga tarjimasi masalalarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz tilidagi moda sohasiga oid neologizmlarning rus va o‘zbek tillariga tarjimalari muammolari birinchi marta ochib berilgan va shu asosda muayyan tarjima usullari, vositalari va strategiyalarini qo‘llashning o‘ziga xosliklariga doir natijalaridan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-2020042022 – “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 18-maydagi 01/10-978-sonli ma’lumotnomasi). Natijada qiyoslangan va chog‘ishtirilgan tillardagi inglizcha pretsedent fenomenlarni tarjima qilish uchun zarur til va madaniy kompetensiyalar shakllangan hamda ingliz tilidagi materiallar bilan ishlashda bilim va ko‘nikmalar baynalminallashgan;

ingliz tilidagi OAVlarida moda sohasidagi neologizmlarni rus va o‘zbek tillariga tarjima qilish strategiyalari modelidan foydalanish vositasida tarjimani takomillashtirishga oid tavsiyalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan I-OT-2019-42 – “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (Inson qiyofasi, fe‘l atvori, tabiat va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish nomli” amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 18-maydagi 01/10-977-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ingliz tilidagi modaga oid neologizmlarning fonetik, semantik va morfologik tahlili ularning tarjima usullarini aniqlashtirish imkonini bergan;

ingliz tilidagi moda sohasidagi neologizmlar paydo bo‘lishining qoidalari, shuningdek, neologizmlarning turlari va klassifikatsiyasini tushunishga doir turli yondashuvlar, ingliz tilidagi neologizmlarni rus va o‘zbek tillariga tarjima qilish qiyinchiliklari, tarjimada berilish usullari haqidagi xulosalardan Surxondaryo viloyati “Ishonch” teleradiokompaniyasida “Ingliz tilida neologizmlarni turlari va vazifalari” sarlavhasi ostida 2023-yilning 18-oktabr sanasida efirga uzatilgan

dasturni tayyorlashda foydalanilgan. (Surxondaryo viloyati “Ishonch” teleradiokompaniyasining 2023-yil 18-oktabrdagi № 148-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ingliz tili neologizmlarining rus va o‘zbek tillariga tarjimalari to‘g‘risidagi faktik materiallaridan ko‘rsatuv mazmunini yaxshilashga erishilgan, shuningdek, ko‘rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning ommabopligi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 8 ta ilmiy maqola, jumladan, 6 tasi respublika va 2 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, amaliy natijalari va ilmiy yangiligi bayon qilingan, tadqiqotdan olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tilshunoslikda neologizmlarning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi turli tizimli tillardagi neologizmlar hamda ularning rus va o‘zbek tillariga tarjimalari tahlili haqida ilmiy-nazariy qarashlar tadqiqi muammolariga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi faslida “neologizm” tushunchasi va mohiyati, ularning tilshunoslikda o‘rganilishi haqida ma’lumotlar berilgan. Neologizm tilshunoslik termini sifatida dastlab XVIII asrning o‘rtalarida fransuz olimlari A.Darmsteter, L.Derua, M.Koen, P.Jilber, B.Garuenlar tomonidan ilmiy muomalaga olib kirilgan⁸. XIX asrning boshida mazkur termin boshqa tillarga, jumladan, ingliz tiliga ham kirib keldi va bu yerda unga shunday ta’rif berildi: yangi so‘z va ibora qo‘llash hamda tilga innovatsiyalarni joriy etish. Shu bilan birga, bugun ham neologizm tushunchasi atrofida ko‘plab ilmiy bahs-munozaralar davom etmoqda. Bu holat neologizmlar tarjimasiga bag‘ishlangan termin ma’nosi va ta’rif-tavsiflarni ushbu tadqiqot mavzusi kontekstida qayta idrok etishni taqozo etadi⁹.

Neologizmlar yoki tilshunoslikning neologiya sohasini XX asrning ikkinchi yarmida ingliz olimlaridan B.A.Garner, Jr. Buckingham, V.Hugh, J.Volden, K.Lord, Michael D.Pikone va boshqalar, rus olimlaridan A.A.Bragina, R.A.Budagov,

⁸ Пасечная Л.А., Попова Т.В. К проблеме дефиниции нового слова в современной лингвистике // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2005. – №11. – С.168.

⁹ O‘sha yerda. – B. 169.

Y.V.Rozen, N.I.Feldmin, G.O.Vinokur, V.G.Gak va boshqa olimlar tadqiq qilishgan.

Neologizmlarning paydo bo'lishi va tarqalishining asosiy sababi ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyot, yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqelikning paydo bo'lishi, fan va texnika sohasidagi kashfiyotlar, shuningdek, madaniyat sohasidagi muhim yutuqlardir, degan xulosaga kelish mumkin.

Bobning ikkinchi fasli bevosita ingliz neologizmlarining turlari va vazifalarini o'rganishga qaratilgan. Unda neologizmlar tadqiqidagi qator yondashuvlar tahlilga tortilgan. Masalan, stilistik yondashuvda neologizmning so'z sifatidagi talqini qo'llaniladi. Bu yerda innovatsiya (yangilik) uning stilistik ma'noda qo'llanilishi bilan aniqlanadi. Bular jargonlar sohasiga kirib kelgan va maishiy hayotda ko'p ishlatiladigan leksemalar bo'lishi mumkin. Denotativ yondashuvga binoan neologizmlar – bu yangi predmet, tushuncha va hodisalarni nomlash uchun xizmat qiladigan so'zlardir. Bunday so'zlar mazkur yondashuv natijasida yangi denotativ ma'no kasb etadi.

Struktur yondashuvda neologizmlar mutlaqo yangi lisoniy va tovushiy shakl hamda tuzilishga ega so'zlar sifatida talqin etiladi. Etimologik yondashuv doirasi mazkur termin tilda mavjud, ammo yangi ma'no kasb etgan so'z tarzida o'rganilgan. Leksikografik yondashuv esa so'z yangi ekanligining asosiy ko'rsatkichi uning lug'atlarda qayd etilmagani nazarda tutiladi. Binobarin, neologizm – bu hali tilning faol zaxirasini to'ldirishga ulgurmagan va har bir tarixiy bosqichga yangi bo'lgan lug'aviy birliklardir¹⁰.

Rus tilshunos olimi T.S.Peskova esa neologizmlarning quyidagi tasnifini ishlab chiqqan:

1) neologizmlar (shakli ham, ma'nosi ham yangi): “*top fashion*” – eng yuqori urfdagi; “*brand*” – “urfga kirgan”. Bunday neologizmlar umumadabiy leksika, xususan, termin va tushunchalar safidan tez joy oladi;

2) transnominatsiya (shaklan yangi, ammo ma'nosi boshqa shaklda berilgan : “*gudser*” (“*suds*” – “sovun ko'pigi”) – *soap opera* – «мыльная опера». Mazkur neologizmlar, odatda, sodda ekspressiv tilda istifoda etiladi va sinonimlik maqomini kasb etadi;

3) eski so'zlarning yangi ma'noda qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan semantik innovatsiyalar: “mezaterapiya” – neologizmi tarkibidagi “terapiya” so'zi ilgari “davolovchi vrach” ma'nosida ishlangan bo'lsa, mazkur neologizm hozirgi kunda “kosmetolog muolajasi” ma'nosini olgan. Ba'zan chet tili ham ta'sir qiladi;

4) okkazionalizm (nonct - words) ma'noda vaziyatlarni ifodalash uchun yuzaga kelgan so'zlardir. Bunday neologizmlar lug'atlarga kiritilmaydi va shu bois tilga kirmaydi. Ular funksional bir martalikni ifodalashga yo'naltirilgan va, asosan, konversiya yo'li bilan yasaladi. Masalan: “*I wifed in Texas*” – “Men Texasda uylanganman”¹¹.

Neologizmlarning stilistik funksiyalari ularning terminologik yoki uslubiy so'z va so'z birikmalari ekanligida, boshqacha aytganda, obyektiv borliqning yangi

¹⁰ Пескова Т.С. Неологизмы. – М.: Просвещение, 2019. – С.5.

¹¹ Пескова Т.С. Неологизмы. – М.: Просвещение, 2019. – С.95.

tushunchalarini anglamasligi yoki tilda avvaldan mavjud tushunchalarni izohlash yoki izohlamasligiga bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Stilistik neologizmlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: “... *besides, there is a tact*”. *That modern phrase appears to me sad stuff. But it will serve to keep my verse compact. (Bu zamonaviy ibora menga g‘amgin tuyuladi. Ammo bu mening misralarimni ixcham saqlashga yordam beradi) Bayron. Don Juan.*

Keltirilgan misoldagi “takt” so‘zi ma‘nosi 1904-yilda Oksford lug‘atida qayd etilgan. Yangiligini his etgan Bayron uni o‘z she‘rlarida ishlatgan¹².

Yuqorida bayon qilinganlarga asosan neologizmlarni quyidagi turlarga ajratdik:

1) terminologik neologizmlar, ya‘ni fan va texnika, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar natijasi o‘laroq paydo bo‘lgan yoki mavjud tushunchalarni yangi so‘zlar bilan ifodalovchi yangi leksik va frazeologik neologizmlar;

2) stilistik neologizmlar. Neologizmlarning bu turi yordamida tilda so‘zlarning uslubiy qo‘llanilishi me‘yor va mezonlari o‘zgaradi.

Neologizmlarni tarjima qilish strategiyalari deb nomlangan uchinchi bo‘limda neologizmlarni tarjima qilishning zamonaviy uslublari va strategiyalari o‘rganilib, ularning tarjima funksiyalari qisqarganligini ko‘rish mumkin. Ingliz tilidan rus tiliga ularning ma‘nosi, hissiy bo‘yoqlari, rus tilida so‘zlashuvchi o‘quvchiga (tinglovchiga) xabarni muallifning asl nusxada mo‘ljallanganidek idrok etish imkonini beruvchi boshqa ko‘plab xususiyatlarning adekvat tarjimasini hisoblanadi.

Umuman olganda, neologizmlarning tarjimasini murakkab hisoblanadi. Shu bilan birga, tarjima nazariyasida tarjimonga ushbu vazifani bajarishda yordam beradigan ko‘plab maxsus texnikalar ishlab chiqilgan, xususan, konseptual hamkorlikdan, analogiyadan, stilizatsiyadan, aniqlashtirishdan, yaqinlashtirishdan va hokazolardan foydalanishimiz mumkin. Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda tilshunos olimlar tomonidan taqdim etilgan tarjima strategiyalarini tizimlashtirib, ulardan neologizmlarning yuqori sifatli tarjimasini ta‘minlashda qanchalik samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiqot davomida dalillangan.

Ingliz moda sanoatida amal qiladigan neologizmlar tarjimasida, asosan, transkripsiya va transliteratsiyadan istifoda etiladi. Transkripsiya (fonetik yozuv) bu asliy tili so‘z, so‘z birikmasi, gap va shu kabilar qanday talaffuz qilinsa, shunday aks ettiradigan tarjima usulidir. Masalan: “blush” – “blash”; “outfit” – “ajratish”; “newbook” – “nyubuk”.

Transliteratsiya esa asliyat tili so‘z, so‘z birikmasi va gaplarini tarjima (tabdil tili desak ma‘qul) tili harflari bilan berish usulidir “batik” – “батик”; “shimmer” – “шиммер”; “reglan” – “реглан”.

Moda sohasiga doir neologizmlar tarjimasida kalkalash usulidan nisbatan kam foydalaniladi. Kalkalash asliyat tili birliklarining tarkibiy qismlarini (morfema yoki so‘zlarni) ularning tarjima tilidagi muqobillari bilan almashtirib o‘girish usulidir. “*French packet*” – “*fransuzcha cho‘ntak*”, “*ready to wear*” – “*kiyishga tayyor narsa*”.

¹² Левченко Г.А. Неологизмы английского языка. – Новосибирск: Дело, 2008. – С.51–52.

Lisoniy va etnomadaniy hayot hodisalarini ifodalovchi xos soʻzlar doimo tadqiqotchilar eʼtiborida boʻlgan. Bolgariyalik tarjimashunoslar S.Florin, V.Vlaxov va L.S.Barxudarovlar xos soʻzlar va ularning tarjimasi haqida qiziqarli nazariy hamda amaliy maʼlumotlar bergan¹³. Masalan, L.S.Barxudarovning yozishicha, xos soʻzlar tarjimasining asosiy muammosi asliyat tili leksemalarining tarjima tili leksemalariga mos kelmasligidir. Tadqiqotchi asliyat tili va tarjima tili orasidagi semantik mosliklarni 3 turga birlashtiradi:

- 1) toʻliq moslik
- 2) qisman moslik
- 3) nol moslik¹⁴.

Biz tadqiqot obyekti qilib olgan neologizmlar xos soʻzlar sirasiga mansub. Shuning uchun ularning tarjimasida xos soʻzlar (realiyalar) tarjimasida istifoda etiladigan strategiyalarni taklif etamiz. Dunyo tillarining har biri milliy boʻyogʻi (koloriti) yaqqol sezilib turgan soʻzlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Tarjimashunos va oʻlkashunos olim G.D.Tomaxin turli til hamda madaniyatlarni qiyoslashda quyidagi xos soʻzlarning qoʻllanilish xususiyatini aniqlash imkonini berishi haqida qiziqarli maʼlumotlar beradi¹⁵:

1) muayyan xos soʻz faqat bir til jamoasi uchun xarakterli, yaʼni u boshqa tilda boʻlmaydi;

2) xos soʻzlar ikki tilda boʻlishi mumkin. Ammo ular har ikkala tilda qoʻshimcha maʼno yoki maʼno nozikliklariga ega boʻladi;

3) har bir ijtimoiy jamoada bunday funksiyalar turga xos boʻlgan soʻzlar yordamida ifodalanadi;

4) har bir til jamoasida oʻxshash xos soʻzlar turli maʼno nozikliklari bilan farqlanadi. Masalan, *cickoʻos call* – amerikaliklarning xalq rivoyatlarida kakkuning kakkulashi – bu yosh qizning turmush qurishiga (nikoh toʻyiga) qancha qolganini bildirsa, rus rivoyatlarida esa kishining yana qancha yil yashashini anglatadi¹⁶.

“Moda sohasiga oid inglizcha neologizmlarning nominativ xususiyatlari” deb nomlangan ikkinchi bobda bugungi kunda ingliz tilida nomlash jarayonlari xususiyatlari “kiyim-kechak” va “poyabzal” semantik-mavzuiy guruhlariga doir neologizmlar tadqiq qilingan. Ingliz tilida kiyim-kechak” va “poyafzal” (poyabzal)¹⁷ tushunchalarini oʻrganish kognitiv hamda semiokulturologik yoʻnalishlar taraqqiyotiga bagʻishlangan ishlarda ham chuqur tahlil qilingan¹⁸.

Bobning birinchi fasli moda sohasidagi zamonaviy ingliz neologizmlarining nominativ xususiyatlarini yoritishga qaratilgan.

Moda sohasidagi inglizcha neologizmlar moda jurnallari maqolalarida koʻproq qoʻllanadi. Moda sanoatining ommabop nashrlari tilda neologizmlarning

¹³ Левченко Г.А. Неологизмы английского языка. – Новосибирск: Дело, 2008. – С.51–52.

¹⁴ Влахов.С., Флорин.С. (2009). Непереваемое в переводе. R. Valent.; Мирзаев И.К. Проблемы передачи слов, обозначающих реалии французской жизни, узбекский язык. канд. дисс. – Л.: ЛТУ, 1975.; Бархударов Л.С. Оʻsha asar. – В.81.

¹⁵ Томахин Г.Д. Реалии-американизмы. Пособие по страноведению: Учеб. пособие для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высш. шк., 2020, – С.63.

¹⁶ Оʻsha yerda. – В.87.

¹⁷ Шатова А.Е. Номинативные процессы в англоязычной лексике предметной сферы «одежда»//Вопросы лингвистики. – 2015. – № 4. – С.23.

¹⁸ Игнатов Н.И. Развитие когнитивного и семикультурного направлений в исследовании категории «одежда» и «обувь» в английском языке. – М.: Просвещение, 2019. – С.137.

paydo bo'lishi, ma'lum lisoniy-ijtimoiy maqom kasb etishi nuqtayi nazaridan juda muhim. Chunki ular, ko'pincha, yangi so'z yoki gaplarning paydo bo'lishi va qo'llanishi uchun birgalikda manba vazifasini bajaradi. Moda jurnallarida rangni tasvirlovchi neologizmlar juda keng tarqalgan. Buning sababi, bizningcha, maqolalarda yilning ma'lum faslida namoyon bo'ladigan rang nozikliklarining ko'p muhokama etilishidir. Bir necha misol keltiramiz: "*Carafe*" – "koferang"; "*emerald*" – "zumradrang"; "*Dazzling blue*" – "yarqiroq moviy"; "*turbulence*" – "turbolentrang"(ya'ni asfalt va kuzgi osmon rangini eslatuvchi quyuq kulrang); "*vivacious*" – "jonbaxsh pushtirang"; "*berry-hued*" – "rezavorrang" va boshq¹⁹.

Atoqli otlar nomlari bilan kelgan neologizmlar tarkibiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi (Misollar va ularning tarjimalari muallifga tegishli):

- Bir tarkibli neologizmlar: "*Joseph*" – "Jozef", "*Oxfords*" – "Oksford" va boshq.

- Ikki tarkibli neologizmlar: "*Albert boots*" – "Albert etigi", "*Gainsborough bonnet*" – "Heynsberg qalpog'i", "*Garibaldi blouse*" – "Haribaldi bluzosi (kalta ko'ylagi)" va boshq.

- Uch tarkibli neologizmlar "*Charlotte Corday bonnet*" – "Sharlotta korde qalpog'i", "*Jack tar trousers*" – "matroslar shimi", "*Marie stuart bodice*" – "Mariya Styuart korsaji" va shu kabilar.

- To'rt tarkibli neologizmlar: "*Little Lord Faunt-leroy dress*" – kichik lord libosi va boshq.

Tadqiqotimiz davomida biz atoqli otlar bilan yasalgan neologizmlarning quyidagi guruhlarini aniqladik:

- 1) toponimlar bilan kelgan kiyim-kechak va poyabzalga doir neologizmlar: "*Ascot*", "*Balmoral*", "*Eton*", "*Oxford*", "*Sahara*", "*York*";

- 2) topoetnonimlar bilan ishlatiladigan kiyim-kechak va poyabzal yangi nomlari: "*Armenian*", "*French*", "*Indian*", "*Japanese*", "*Oxonian*", "*Prussian*", "*Russian*", "*Spanish*", "*Venetian*".

Ikkinchi bobning ikkinchi faslida neologizmlarning tadqiq qilinyotgan tillardagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Ingliz tilida neologizmlar asosini tashkil qiladigan obyektlarni mos ravishda yana 2 guruhga va 2 tag guruhga ajratish maqsadga muvofiq ko'rinadi:

1. Toponim, joy, topoetnonim mazkur kiyim-kechak va poyabzal buyumlari mansub etnik hamjamiyat ko'rsatilgan neologizmlar: "*York tan gloves*" (mallarang teri qo'lqop), "*Barcelona handkerchief*" (Barselona ro'moli), "*French Gigot sleeve*" (serhasham fransuzcha yeng), "*Indian nocrtie*" (hind bo'yinbog'i). Keltirilgan neologizmlar narsaning ma'lum modaga mansubligi (French), qanday materialdan tayyorlanishi (Indian), kiyish usuli (Barcelona), mahsulot rangi va sifati (York) haqida ma'lumot beradi.

2. Tarkibida joy toponimlari bo'lgan neologizmlar. Bunday neologizmlar shu joyda ahamiyatga molik voqea-hodisalar sodir etilganidan ma'lum tashkilotlar joylashganidan, mashhur shaxslar bo'lganligidan dalolat berib turadi. Qiyoslang: "*Ascot tie*" – Askot bo'yinbog'i; "*Balmoral boots*" – "Eton jacket" – Iton

¹⁹ Байжанова А.Х., Ким И.А. Неологизмы в статьях журналов о моде // Вопросы языкознания. – 2016. № 3.– С. 24.

nimchasi, *“Oxford shoes”* – Oksford botinkalari. Masalan, *“Ascot tie”* neologizmidagi *“Ascot”* toponimi ushbu kiyimni kiyib yurgan kishining yuqori ijtimoiy maqomi, uning axloq-odob qoidalariga amal qilishini ko‘rsatadi. *“Oxford shoes”* neologizmidagi *“Oxford”* toponimi botinkalar shakli, tikilgan material bilan uni kiyib yurgan kishi universitet doirasidan ekanligidan dalolat berib turadi. Hozirgi ingliz tilining kognitiv qolipida ijtimoiy maqom haqidagi ma’lumot saqlanib turadi, ammo uning mazmuni o‘zgaradi. Fikrimizcha, mazkur poyabzal egasi *“college graduate (kollej bitiruvchisi)”* yoki *“businessman”* (ishbilarmon) sifatida talqin qilinadi.

3. Ma’lum hudud yoki jamoaga xos uslubni ifodalovchi neologizmlar: *“Armenian mantle”* – arman yopinchig‘i, *“Grecian sandals”* – yunon sandallari, *“Japanese hat”* – yapon shlyapasi, *“Russian boots”* – rus botinkalari, *“Spanish cloak”* – ispan plashlari. Mazkur neologizmlar uchun topoetnonimlarni tanlash sababi muayyan etnik guruhga mansub kishi tashqi ko‘rinishi bilan uning kiyimi orasidagi fikriy bog‘lanishlikdir.

4. Muayyan ob-havo sharoiti bilan bog‘liqlikni eslatuvchi neologizmlar: *“Sahara Sandals”* – Sahara sandallari.

Ushbu tadqiqot material tahlili mashhur nomlar bilan bog‘liq kiyim-kechak va poyabzal nomlarini ularning manbalariga qarab, 7 guruhga taqsimlash imkonini beradi:

- 1) Injil nomlari;
- 2) qirol oilasi vakillari nomlari;
- 3) siyosiy arbob nomlari;
- 4) musavvirlar nomlari;
- 5) adiblar nomlari;
- 6) badiiy asar personajlari nomlari;
- 7) harbiy sarkardalar nomlari.

Ingliz tilli modaga oid jurnallar sahifalarida kiyim-kechaklar nomlarini ifodalovchi va tasvirlovchi neologizmlar hamisha qo‘llanilib keladi.

Tadqiqotimizning mazkur faslida moda sohasidagi inglizcha neologizmlarning yasaliş xususiyatlari va shakllanish omillari o‘rganilgan.

Ingliz tili leksikasining modaga doir neologizmlarning bir necha turi hosil bo‘ladi:


1. Fonologik neologizmlar tovushlar va tovushga taqlid undovlarning birikishi natijasida shakllanadi. Amerikaning moda jurnallarida nafis matolar haqida gap borganda, ko‘pincha, zavq-shavq va shodlikni ifodalovchi *“whee”* undov so‘zidan yasalgan *“whee”* neologizmini ko‘p uchratish mumkin. Moda stilistlari (uslubchilari)ning qanday kiyimni bir paytda kiymaslik haqidagi tavsiyalari bitilgan sugun (kolonna)larga *“yuck”* undov so‘ziga borib taqaluvchi va jirkanishning yuqori darajasini ifodalovchi *“yuck”* “jirkanish” sifatiga duch kelish mumkin. *“To clapter”* (“olqishlamoq”, “chapak chalmoq”) fe’li (modelyerlar sahnaga chiqqanda) qarsak chalishdan hosil bo‘ladigan tovushga taqliddan yasalgan. O‘rni kelganda, modelyerning qo‘yilmagan namoyishini urg‘ulash uchun qo‘llaniladigan *“bazinga”*ni ham eslatish joiz. U tovushga taqlid asosida yuzaga kelgan *“to zing”* – “o‘qqa tutmoq” fe’lidan yasalgan.

2. O'zlashma so'zlar ham moda sohasida neologizmlar yasashning ancha keng tarqalgan qismidir. To'g'ri, hozirgi ingliz tili donor til sifatida ommalashgan. Biroq uning lug'at tarkibi ham boshqa tillardan olinadigan so'zlar hisobiga boyib boradi. Masalan, mashhur moda jurnallarida "bolero" (bolero, kalta nimcha), "bao" (sharfcha), "Dzhigit costume"(yigitcha kostyum)²⁰ kabilarni ko'rishimiz mumkin.

3. Morfologik neologizmlar tilda amal qiladigan namunalar asosida morfemalardan yasaladi.

- glmr (glamur-glamur)²¹.

Shunday qilib, tilda yangi so'z yasashning turli xil usullaridan foydalanadi (eslatamiz: affiksatsiya, chatishma, so'z qo'shish, konversiya, abbreviatsiya). Bu usullar hozirgi ingliz tilida kechayotgan semantik va so'z yasash jarayonlarini aks ettiradi. Bunda neologizm ma'nosi yangi so'zning individual qo'llanilishidan til jamoasiga o'tishi bilan bog'liq lingvokreativ faoliyat natijasi o'laroq shakllanadi. Hozirgi ingliz tilida neologizm yasashning eng xarakterli sarmahsul va ko'p qo'llaniladigan usullari so'z qo'shish, ma'no o'zgarishi, konversiya ekanini neologizmlar kammahsul usullardan ham yasalishi mumkinligini biz yuqorida ko'rdik. Ingliz tili lug'at boyligining ma'lum ulushini tashkil qiladigan yangi so'zlar o'z ma'nosi hozirda amal qiladigan modaga, moda birliklarining talaffuzi va intonatsiyasi, muallif so'z ijodkorligini hamda ma'lum kontekst mazmunga bog'liq holda o'zgartirib turadi. Ular noaniq (mujmal) va bir-biri bilan kesishadigan so'zlar doiralarini hosil qiladi. Bu holat ularning bir funksional uslubdan ikkinchisiga osongina o'tishiga imkon yaratadi.



1-rasm. Turli tizimli tillarda modaga doir neologizmlar.

Moda sohasida inglizcha neologizmlarning yasaliş jarayoni juda rang-barang va qiziqarli. Modaga oid nashrlarda yangi so'zlar o'zlashmalar, fonologik, morfologik, so'z qo'shish, qisqartirish ham konversiya usullari yordamida

²⁰Белка Ю.В. Неологизмы английского языка 2013-2014 годов. // Наука-RASTUDENT.RU. – 2014. No.5. <http://nauka-rastudent.ru/5/1453/>

²¹ Краев В.Л. Неологизмы в сфере моды. – М.: Просвещение, 2017. – С.121.

yasaladi. Moda sohasida neologizmlarning yasaliş qonun-qoidalarini bilish ularni to‘g‘ri qo‘llash va to‘g‘ri tarjima qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi. Tadqiqotlar moda sanoatida ishlatiladigan neologizmlarni rus va o‘zbek tillariga tarjima qilishning eng samarali va ko‘p qo‘llaniladigan usulda transkripsiya ekanini ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot ishimizning ahamiyati mazkur lug‘aviy birliklar yasalişining turli usullari hamda bir til tizimidan ikkinchi til tizimiga tarjima qilishda ishlatiladigan transformatsiyalar samaradorligini asoslab berishdan iborat.

Moda sohasidagi neologizmlarni o‘rganish jarayonida ingliz tili (Jumla g‘alizroq. “Ingliz tilida moda semasiga ega neologizmlar tilshunoslar tomonidan” deyish ma’qulmi) 8 ta tematik guruhlariga ajratilgan. Ulardan bel sohasi kiyimlari nomlarini o‘z ichiga olgan guruh, eng kichigi esa mato nomlarini o‘z ichiga olgan guruhlariga mansubligi aniqlangan. Moda sanoatida tilning ichki vositalaridan foydalangan holda yangi neologizmlarni shakllantirishning eng samarali usullari hozirgi vaqtda affiksatsiya va so‘z biriktirish ekanligi dalillandi.

“Inglizcha moda sohasiga oid neologizmlarning rus va o‘zbek tillariga tarjimasi masalalari” deb nomlangan tadqiqotining ushbu bobida “InoSMI” va “InoPressa” jurnallarida bosilgan materiallardagi inglizcha neologizmlar tarjimasi strategiyalari tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida tarjimaning yuqorida qayd etilgan usul va vositalarini neologizmlar yasalişining xususiyatlariga tayangan holda olib boriladi²²:

“Neologizmlarning ingliz tilidan rus tiliga tarjimasi masalalari” deb nomlangan birinchi faslda rus ommaviy axborot vositalari tomonidan xorijiy tillarni tarjima qilishga ixtisoslashgan moda sohasidagi ingliz neologizmlarini tarjima qilish uslublari, usullari va strategiyalari tahlil qilindi. Asosan transliteratsiya va transkripsiya usullaridan foydalanilganligi aniqlandi, ammo InoPressa portali modulyatsiya, umumlashtirish va boshqa strategiyalardan foydalangan holda ijodiy yondashuvga ko‘proq moyil ekanini ham ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizcha, neologizmlar tarjimasida transliteratsiya yoki transkripsiya usullari bilan bir qatorda so‘zma-so‘z (kalka, sintaktik monandlik), konkretizatsiya, generalizatsiya (umumlashtirish), antonimik tarjima, kompensatsiya hamda modulyatsiya (mazmunan boyitish) strategiyalardan foydalanish ham tarjima adekvatligiga xizmat qiladi.

1. *“A below-the-knee skirt is key – and whats more, instead of being offset by a crop top, it is worn with a boxy T-shirt, or a wrapover jacket, or a sleeveless coat”* “InoPressa” transkripsiya/transliteratsiya yordamida *“кротон”*²³, “InoSMI” esa kalkalash va leksik-semantik almashtirish yo‘li bilan *“укороченная толстовка”*²⁴ shaklida tarjima qilgan. Ko‘rinadiki, “crop top” neologizmi tarjimasida “InoPressa” transkripsiya va transliteratsiya kabi an’anaviy usullarni “InoSMI” esa kalkalash usulini qo‘llagan. Biroq ikkala usul ham o‘zini oqlamagan.

²² Zamora J.Randolph E. Fashion’s Next Trend: Clothes That Don’t Exist // Yahoo! News. https://www.yahoo.com/?err=404&err_url=https%3a%2f%2fnews.yahoo.com%2fnext-fashion-trend-clothes-dont-102535368.html

²³ Замора Дж., Рэндольф Э. Следующий тренд в моде: одежда, которой не существует // InoPressa. – 06.10.2021. – URL: <https://www.inopressa.ru/article/06Oct2021/yahoo/digitaltrend.html>

²⁴ Замора Дж., Рэндольф Э. Новый модный тренд: несуществующая одежда // ИноСМИ. <https://inosmi.ru/search>

Chunki birinchi tarjimada “crop top” izohsiz, ikkinchi tarjimada esa neologizm ma’nosi tushunarli, ammo milliy kolorit yo‘qolgan. Shundan kelib chiqib, biz mazkur neologizmni asliyat shaklida berib, qavsda (yoki satr ostida) uning ma’nosini izohlashni taklif qilamiz.

2. *Backstage after her show, Victoria Beckham singled out the flat winklepickers as her obsession from the collection winklepickers*”²⁵ – “shoes with a long pointed toe”²⁶ “InoPressa”da transkripsiya transliteratsiya yo‘li bilan «винклпикеры», “InoSMI”da leksik-semantik transformatsiya yordamida «туфли-лодочки»²⁷ tarzida rus tiliga o‘girilgan. Mazkur inglizcha neologizmning ruscha tarjimasi haqida ham yuqoridagi kabi fikrni bildirish mumkin.

3. “Streetwear meets Woodstock in this unusual combination of tie-dye used as a print for the bombers, sweats and other streetwear pieces à la Louis Vuitton”²⁸. Neologizm “streetwear” – “casual, street style of clothing”²⁹: rus tiliga shunday o‘girilgan, ya’ni “InoSMI”da transkripsiyalar, transliteratsiya usulidan foydalanib, “stritvir”³⁰, “InoPressa” esa kalka usulidan foydalanib, «повседневная одежда» tarzida tarjima qilingan³¹. Yuqorida keltirilgan misolda, bizningcha, transkripsiyalar transliteratsiya usuli o‘zini deyarli oqlamaydi. Chunki ushbu inglizcha neologizm faqat kam sonli rus tili vakillari uchun tushunarli. Yoki “tie-dye” – “A tie-dye is a garment or piece of cloth that has been tie-dyed”³² gapidagi tie-dye neologizmini “InoSMI” konkretlashtirish (izohlash) yo‘li bilan «яркая футболка с рисунком»³³ shaklida tarjima qiladigan bo‘lsa, “InoPressa” modulyatsiya (ma’noni rivojlantirish) usuliga murojaat etib, «varenka»³⁴. tarzida rus tiliga o‘giran. Neologizm “bomber” – “A short sturdy jacket traditionally made of leather and having a fitted or elastic waist, a zippered front, and often a fleece or pile collar. Also called flight jacket”³⁵: neologizmini “InoSMI” transliteratsiya yo‘li bilan “bomber”³⁶, “InoPressa” esa izohlash yo‘li bilan “свободный пиджак – куртка” shaklida tarjima qilingan³⁷.

²⁵ Cartner-Morley J. From the alpha plait to the high-hip split: eight fast trends from New York fashion week // The Guardian. – September 9, 2021. – URL: <https://www.theguardian.com/fashion/2021/sep/09/alpha-plait-high-hip-split-new-york-fashion-week-flat-shoes-victoria-beckham-winklepickers-summer> (reference date: July 14, 2022).

²⁶ Urban Dictionary. – URL: <http://www.urbandictionary.com/> (reference date: July 14, 2022).

²⁷ Картнер-Морли Дж. Альфа-коса и высокое бедро: восемь трендов недели моды в Нью-Йорке // ИноСМИ. – 09.09.2021. – URL: <https://inosmi.ru/20220712/biznes-254983286.html> (reference date: July 14, 2022).

²⁸ Gosling R.C. Men’s Fashion: 22 top trends for Spring/Summer 2022 // Vogue. – March 27, 2022. – URL: <https://www.vogue.fr/vogue-hommes/fashion/story/mens-fashion-22-top-trends-for-spring-summer-2022/4065> (reference date: July 14, 2022).

²⁹ Urban Dictionary. – URL: <http://www.urbandictionary.com/> (reference date: July 14, 2022).

³⁰ Гослинг Р.К. 22 тренда мужской моды на весну/лето 2022 года // ИноСМИ. – 27.03.2022. – URL: <https://inosmi.ru/20220702/ochki-254771225.html> (reference date: July 14, 2022).

³¹ Гослинг Р.К. Мужская мода: 22 главных тренда весны/лета 2022 года // InoPressa. – 27.03.2022. – URL: <https://www.inopressa.ru/article/27Mar2022/dailybeast/stilettos.html> (reference date: July 14, 2022).

³² CED – Collins English Dictionary. www.collinsdictionary.com/dictionary/english/

³³ Гослинг Р.К. 22 тренда мужской моды на весну/лето 2022 года // ИноСМИ. – 27.03.2022. – URL: <https://inosmi.ru/20220702/ochki-254771225.html> (reference date: July 14, 2022).

³⁴ Гослинг Р.К. Мужская мода: 22 главных тренда весны/лета 2022 года // InoPressa. – 27.03.2022. – URL: <https://www.inopressa.ru/article/27Mar2022/dailybeast/stilettos.html> (reference date: July 14, 2022).

³⁵ Your Dictionary. – URL: www.yourdictionary.com/ (reference date: July 14, 2022).

³⁶ Гослинг Р.К. 22 тренда мужской моды на весну/лето 2022 года // ИноСМИ. – 27.03.2022. – URL: <https://inosmi.ru/20220702/ochki-254771225.html>

³⁷ Гослинг Р.К. Мужская мода: 22 главных тренда весны/лета 2022 года // InoPressa. – 27.03.2022. – URL: <https://www.inopressa.ru/article/27Mar2022/dailybeast/stilettos.html> (reference date: July 14, 2022).

